

RASMIY USLUBDA OLMOSHLI BIRIKMALAR

Temirova Moxidil Komilovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
(magistr)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17461274>

Annotatsiya: Ushbu maqolada olmoshning birikma holda kelib ma'lum bir vazifalarni bajarishi, nutq uslublaridan rasmiy uslubda, o'quv jarayonida zarur bo'lgan: ariza, ma'lumotnoma shunga oid ish qog'ozlarda olmoshli birikmalarning qo'llanish holatlarining bir qismi yoritildi.

Kalit so'zlar: shunga doir, shu sababli, shuning uchun, shu nuqtayi nazardan, shunday ekan, shu bilan birga, shu maqsadda.

A.Hojiyev rasmiy-ish uslubi rasmiy (ish-idoraga xos) leksika va frazeologiyaga egaligi, so'zlarning to'g'ri, nomlovchi ma'nosida qo'llanishi, bir qolipdagi iboralarning, amal-mansab atamalarining keng ishlatilishi, ekspressiv nutq vositalarining deyarli yo'qligi kabi belgilari bilan ajralib turishini ta'kidlaydi [41. –B.108].

D.Boboxonova “Hozirgi o'zbek adabiy tilining rasmiy-ish uslubi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek tilshunosligida birinchi bo'lib rasmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari haqida batafsil ma'lumot bergan hamda bu uslubga kiradigan hujjatlar ro'yxatini keltirgan. Hamda ularning har birini bir uslub ichida yana o'z shakllanish uslubi (podstillari) mavjudligini ta'kidlagan. Olima rasmiy uslubga quyidagi hujjatlarni kiritadi: hukumat qarorlari, farmonlar, farmoyishlar, chaqiriqlar, qonunlar, buyruqlar, nizomlar, yo'riqnomalar, diplomatik, hujjatlar, xalqaro shartnomalar, kelishuvlar, rasmiy xabarlar, notalar, ultimatumlar, elchilik konvensiyalari, kodeklar, chaqiriq qog'ozlari, ishonch qog'ozlari, ijro varaqalari, ajrimlar, sud varaqalari, yuridik dalolatnomalar, raddiyalar, tavsiyanomalar, tilxat, ayblov, tashqariga chiqmaslik haqida tilxat, ayblov nutqi, sudning alternativ qarori, hukm, davlat tashkilotlari o'rtasidagi yozishmalar, dalolatnoma, bayonnoma, tushuntirish xati, bayonnoma, ma'lumotnoma, tarjimai hol, tavsifnoma, ariza va boshqalar [51. –B.7]. Mazkur dissertatsiya rasmiy hujjatlarning har birining o'ziga xos va umumuslubiy xususiyatlarini leksik-semantik, morfologik va sintaktik jihatdan tahlil etganligi bilan ilmiy ahamiyatga ega. Xususan, mazkur dissertatsiyaning ikkinchi bobi ushbu uslubning morfologik xususiyatlarini tadqiq qilishga bag'ishlangan [51]. Biroq mazkur tadqiqot ishi yuzaga kelganligiga ham chorak asrdan ko'proq vaqt o'tdi va tadqiqot ishi o'tgan asrda, o'zga mafkura davrida yozilganligini ham e'tiborga olish lozim. Mazkur tadqiqot ishida o'zbek rasmiy uslubining shakllanishida rus tilining ta'siri mavjudligi qayd etilganligini ko'rishimiz mumkin. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng esa ona tilimizning rasmiy uslub doirasidagi hujjatlarda qo'llanishi o'ziga xos ma'no kasb etdi. Bu Sh.Ko'chimov tomonidan 1995-yilda “O'zbekiston qonunlarining tili” mavzusida nomzodlik, 2004-yilda “Huquqiy normalarni o'zbek tilida ifodalashning ilmiy-nazariy muammolari” mavzusida himoya qilgan doktorlik dissertatsiyalarida yoritilgan. Mazkur ishlarda huquqiy davlat qurishda fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirishda qonunchilik texnikasi muhim ahamiyat kasb etib, qonunlarning xalqaro standart doirasida ishlab chiqishning asosiy omili sifatida bu sohadagi hujjatlar tilini ona tilimizning o'z xususiyatlaridan kelib chiqib tayyorlash kerakligi ta'kidlangan.

Soʻz turkumlarining rasmiy uslubga xos matnlarda qoʻllanilish darajasi, xususan, olmosh soʻz turkumlarining qoʻllanishi haqida S.Karimov quyidagi fikrlarni keltiradi: “Shu oʻrinda rasmiy uslubda yozilgan matnlar uchun barcha morfologik vositalar va kategoriyalarning qoʻllanishi bir xil darajada emasligini taʼkidlash ham maqsadga muvofiq. Masalan, olmoshlar bu uslubda boshqa soʻz turkumlariga qaraganda ikkinchi darajali omil sanaladi” [17.–B.21]. O.Yusupovanning “Oʻzbek tilida olmoshlarning funksional-stilistik xususiyatlari” nomli monografiyasida ham olmoshlarning rasmiy uslubning qonunchilik va ish yuritish qogʻozlarida qoʻllanishi haqida maʼlumot berilgan va bu haqida quyidagi fikrlar keltirilgan: “Rasmiy uslubda olmoshlarning ishlatilishi rasmiy mazmundagi matnlarda bu olmoshlar qaysi soʻz turkumiga oid birliklarning oʻrnida kelishi bilan bogʻliq. Muallif nutq vaziyatidan kelib chiqqan holda ulardan birini tanlaydi. Rasmiy uslubga oid matnlarda ot turkumiga oid soʻzlar koʻp ishlatilishi xarakterli ekan, tabiiy ravishda uning oʻrnida qoʻllanadigan olmoshning mavqei pasayadi [34. 74-b]. O.Yusupova rasmiy matnlarda olmoshlardan koʻrsatish olmoshlari (*bu, shu, ushbu, ana bu, mana bu*), belgilash olmoshlari (*barcha, yalpi, bari*), oʻzlik olmoshi faol qoʻllanilishini taʼkidlab, misollar keltiradi. Masalan, oʻzlik olmoshi ariza matnida qoʻllanilishini hujjat matni taqozo etishi (ariza beruvchining kim haqida gap ketayotganligini taʼkidlash zarurati tufayli)ni aytib oʻtgan va quyidagi misollarni keltirgan: *oʻz ixtiyoriga olaman, oʻz faoliyatida, oʻz xohishim bilan, oʻzim haqimda quyidagilarni maʼlum qilaman* kabi [34. –B.78]. Shu oʻrinda aytish zarurki, oʻzlik olmoshi rasmiy hujjatlarning boshqa turlarida ham faol. Masalan, tavsifnoma matnida ham maʼlum bir shaxs xususiyatlari, iqtidori haqida fikr yuritilganda taʼkidlash, ajratib koʻrsatish maqsadida oʻzlik olmoshi va bu olmosh bilan hosil qilingan birikmalardan foydalaniladi: *Urmonova Hurriyat oʻz ustida tinmay ishlaydi, aʼlochi va iqtidorli talaba. Berilgan jamoat topshiriqlarini oʻz vaqtida bajaradi. Ushbu gaplardagi oʻz ustida, oʻz vaqtida* birikmalari maʼlum bir shaxsning xarakteri, harakatini ifodalab berishga xizmat qilmoqda.

Maʼlumotnoma matnida ham *shu haqidakim* birikmasi ishtirok etadi: Aksariyat maʼlumotnomalarda berildi ushbu maʼlumotnoma shu haqidakim deb boshlanadi. Tilxat rasmiy ish qogʻozida *oʻz zimmamga olaman* birikmasi ishtirok etadi.

Agar rasmiy uslubning ish qogʻozlariga yana eʼtibor qaratsak, ariza, tarjimai hol, ishonchnoma, tilxat, vasiyatnoma kabi hujjatlarda kishilik olmoshlari, xususan, I shaxs kishilik olmoshi qoʻllanilishini kuzatamiz. Masalan, rasmiy uslubga xos hujjatlardan biri ariza matnlarida I shaxs birlik kishilik olmoshlari, ularning soʻz-shakllaridan (*men, meni, menga, mening, biz, bizning, bizga, bizdan*) foydalaniladi: *men oʻqishni bitirib..., meni ishga qabul qilishingizni..., mening ahvolimni hisobga olishingizni* kabi. Arizalar jamoa, bir guruh kishilar nomidan yozilishi ham mumkin. Bunday holatda *biz* kishilik olmoshi va uning soʻz-shakllaridan foydalaniladi: *biz yashayotgan uy qurilganiga..., bizga ajratilgan yer maydoni* kabi. Arizalar matnida nafaqat olmoshlar, balki *oʻz ixtiyori (m)ga koʻra, oʻzim haqimda, shu sababli, shuni eʼtiborga olishingizni, shuni eʼtiborga olib* kabi olmoshli birikmalar ham uchraydi:

Vasiyatnoma matnida ham I shaxs kishilik olmoshi qoʻllaniladi: *Men, Fargʻona viloyati Margʻilon shahar Uvaysiy koʻchasidagi 212-uyda yashovchi Solijon Olimovich Gʻafurov ushbu vasiyatnoma orqali quyidagi topshiriqni beraman:/ Men vafotim oldidan menga tegishli boʻlgan barcha mol-mulkimni xotinim Salomatxon Sobirovna Gʻafurovaga vasiyat qilib qoldiraman.*

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Исабеков Б. Кишилик олмошларининг семантик-стилистик хусусиятлари ҳақида // ТошДУ илмий асарлари тўплами, № 648. – Тошкент, 1980. -Б.219.
2. Каримов С. Олмошларнинг функционал-стилистик чегараланиши// Ўзбек тилининг грамматик қурилиши ва стилистикаси/ Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ, 1992. –Б.115.
3. Каримов С. Ўзбек тилининг функционал стилистикаси. – Самарқанд: СамДУ, 2010. – 192 б.
4. Keldiyorova G., Ablayeva N. O'zbek tilida ish yuritish. –Toshkent, 2009.-120b.
5. Маҳмудов Н., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Аминов М. Ўзбек тилида иш юритиш (муншоат). – Тошкент: ЎзСЭ Бош редакцияси, 1990. – 221 б.
6. Ҳожиева Ҳ. Ўзбек тилида ҳурмат майдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти: филол. фан. ном. дисс. автореф. – Самарқанд, 2001. – 22